

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fill.78.04.
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SALIMOVA ZEBO KENJAYEVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTENSIV METODLARNI QO‘LLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)**

13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**The contents of the abstract of doctor of philosophy (PhD)'s dissertation on
pedagogical sciences**

Salimova Zebo Kenjayevna

Ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini
takomillashtirish (Umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)..... 5

Салимова Зебо Кенжаевна

Совершенствование системы использования интенсивных
методов обучения английскому языку (На примере
общеобразовательных школ)..... 21

Salimova Zebo Kenjayevna

Improving the system of application of intensive methods in English
teaching (In the case of general secondary schools)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fill.78.04.
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SALIMOVA ZEBO KENJAYEVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTENSIV METODLARNI QO‘LLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)**

13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Jahon ta'lim tizimida maktab o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishning samarali metod va yondashuvlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, chet tillarni intensiv metodlar asosida tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida qisqa vaqt ichida natijaviylikka asoslangan chuqurroq o'rgatish maqsadida Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action (maktablarni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi)¹ ishlab chiqilgan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, o'smir yoshidagi til o'rganuvchilar ingliz tilida speaking (gapirish), listening (tinglab tushunish), reading (o'qish) va writing (yozish)ga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda intensiv metodlarni qo'llash tizimining takomillashuviga olib kelmoqda.

Dunyo amaliyotida pedagogik taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan innovatsion ijodkorlikni kuchaytirish bo'yicha ta'lim metodlarining islohotlari muntazam amalga oshirilmoqda. Bu borada, ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarishni amalga oshirishda o'qituvchining kreativ pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yish, uning islohotlar jarayonidagi roli va ahamiyatini yanada oshirish, ingliz tilini o'qitishda xalqaro o'qitish, pedagogik mahoratga asoslangan TKT (Teaching Knowledge Test), CELTA (Certificate in English language teaching to adults) kabi o'qitish malakasini baholovchi xalqaro til o'qitish imtihonlarining O'zbekistonda joriy qilinishi negizida ingliz tili o'qituvchilari malakasini yangi bosqichga ko'tarish, mazkur xalqaro o'qitish sistemalarida ingliz tilining amaliy jarayonlarini ko'proq inkluziv usulda tashkil qilishga undaydi. Pirovard mazkur talablarning joriy qilinishi bilan maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlardan foydalanishning imkoniyatini kuchaytirish va ushbu sohada ko'proq tadqiqotlar qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini o'qitish, ularga xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 26-yanvar kunida "Maktab va maktabgacha ta'lim tizimida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar, islohotlar va 2024-yilda belgilangan ustuvor vazifalar" nomli taqdimotda "Maktablarda xorijiy til bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini bu bilan uyg'unlashtirish zarur. Xorijiy tilni intensiv tarzda o'rgatish amaliyotini ham kengaytirish lozim" deya ta'lim tizimi oldiga ustuvor vazifani belgilab qo'ydi. Ushbu ustuvor vazifaning ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlik tamoyillari asosida fan dasturlarini ishlab chiqishda o'zaro uzluksizligi va uzviylikini pirovard maqsad sifatida belgilashni taqozo etadi.

¹Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action. 33-p.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”² to‘g‘risidagi PF-5024-son farmoyishi, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³gi PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”⁴gi PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁴ Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash, ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning til bilish darajalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha O‘.Xoshimov, I.Yoqubov, J.Jalolov, M.T.Irisqulov, G.X.Bakiyeva, Sh.Sh.Atakulova, E.Moydinova, K.J.Riskulova va boshqa olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa, ingliz tilini o‘qitishga qaratilgan innovatsion-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, bunday texnologiyalarni umumta‘lim maktablari o‘quvchilariga tilni o‘rgatish jarayoniga tadbiq etishning turli jihatlarini bo‘yicha N.X.Avliyakov, X.I.Ibragimov, S.B.Baqoyeva, U.Q.Yoraliev, F.M.Mo‘minova, N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva, N.Qurbonaliyeva, G.Xamdamova⁵ lar, ingliz tilini

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni//Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral

³O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y.18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda

⁴O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvar “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida ” gi 34 – sonli qarori.

⁵Avliyakov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: -2001. -b. -68. Ibragimov X.I., Salimova Z.K. Intensive english language acquisition in secondary schools // Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent davlat pedagogika universiteti. 5-son -2021. 73-83-b. Baqoyeva S.B. Ummuymiy ўрта taъlim maktablari da ingliz tili fanini ўqitishda innovatsion ёндашувлар // “Zamonaviy taъlim – Sovremennoye obrazovanie” ilmiy-amaliy, ommaobod jurnali. -2019, 4 (77). -B. 40-45. Yoraliev U.Q. Maktabgacha ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari // Zamonaviy ta‘lim jurnali. - T., -2014. - № 9. 27– b. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. Ingliz til darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar // Uslubiy qo‘llanma. - Navoiy, -2007. - 40-b. Muminova F.M. Ingliz tilini ўqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalaniш // Молодой учёный. - 2020. - № 18 (308). - С. 590–592. Xamdamova G., Niazova M., Ishankulova G. Интенсивные методы преподавания иностранных языков // Наука. Мысль: электронный периодический журнал. Научный журнал. - 2014. - № 10. - С. 1-6. Riskulova K. Dj. Ingliz tili o‘qituvchisi kommunikativ qobiliyatining pedagogic shart-sharoitlari // Zamonaviy ta‘lim. - 2015. - № 8. 27–28– b. Qurbonaliyeva N. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishning innovatsion usullari // Scientific progress. - 2024. - V. 1, № 6. - P. 438–441.

o'qish jarayonida intensiv metodlarni qo'llash masalalari bo'yicha F.S.Toshpo'latova, G.Tolipova, S.Qurbonova, G.Hamdanova, M.Niyozova kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.A.Kitaygorodskaya, G.Lozanov, V.Lazerov, V.G.Akopyan, N.M.Baranova, A.A.Alekseyev, N.D.Galskova, L.M.Denisova, Ter-Minasova, A.N.Shukin⁶ larning ilmiy tadqiqot ishlarida til ta'limiga raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarni tadbiq etgan holda o'quvchilarning integrallashgan holda til bilish ko'nikmalarini (listening, speaking, reading, writing) rivojlantirish kabi masalalar tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Joe Barcroft, H.S.Bensaci, K.M.Bailey, H.D. Brown, L. Cameron, Y. Bayyurt, I. Yaman, S.Kuchuktebe Seval, E.Aksoy, Y. Dilekli, Y. Tavoosy, H.G.Berkant, M.S.Long⁷ va shu kabi olimlarning tadqiqot ishlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarida xorijiy tillarni bilishga oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi, ingliz tilini o'rganish jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Umumta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlardan foydalanish masalalari yuzasidan ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, O'zbekistonda ingliz tilini o'qitishda intensiv

⁶Китайгородская Г.А. Принципы интенсивного обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. – 1988. – № 6. – С. 3–8. Лозанов Г., Гатева Е. Суггестическое практическое руководство для преподавателей иностранных языков. // – София: Научно-исследовательский институт суггестологии, –1981. – 430 с. Акоюн В.Г. Методы и принципы системы интенсивного обучения иностранным языкам // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. –2014. –Т. 16, № 2(4). –С. 909–912. Baranova N. M., Zmushko, A.A. Innovative Technologies: Training In Small Groups On The Method Cooperation.// –M.: Russian State Social University, –2013. –201 p. Алексеев А.В., Смирнова Е.Ю. Английский язык. Поурочные методические рекомендации. 7 класс: учебное пособие для общеобразовательных организаций. // М.: Просвещение, –2017. – С.122 Гальскова Н. Д., Василевич А. П., Коряковцева Н. Ф., Акимова Н. В. Основы методики обучения иностранным языкам: учебное пособие. – М.: КНОРУС, –2018. – С. 156–162. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: учеб. пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец.// «Лингвистика и межкультурная коммуникация». – М., –2000. – 262 с. Шукин А.Н., Фролова Г.М. Методика преподавания иностранных языков: учебник для студ. учреждений высш. образования. // – М.: Издательский центр «Академия», –2015. – 288 с.

⁷Barcroft Joe. Vocabulary in Language Teaching//Routledge,–2015. –41 p. Bailey K.M. Practical English Language Teaching Speaking.// New York: McGraw.Hill, – 2005. – 357 p. Bensaci H. S. An Introduction to English for Specific Purposes (ESP). // Algerian University, –2016. – 301 p. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 3rd ed. – Pearson Education ESL, – 2007. – 410 p. Cameron L. Challenges for ELT from the Expansion in Teaching Children // ELT Journal. – 2003. – Vol. 57, Issue 2. – P. 105–112. Bayyurt Y. Egitim sisteminde erken yasta yabanci dil egitimi. Proceedings of Yabanci Dil Egitimi Calistayi, Hacettepe University, Ankara, Turkey, Retrieved from <https://silo.tips/download/444-eitimsisteminde-erken-yata-yabanc-dil-eitimi>. –2012. –P.97–107. Küçüktepe S., Kerimoğlu E. Evaluation of the Intensive English Language Teaching Program for the 5th Grade according to Teachers' Views // International Journal of Progressive Education. – 2021. – T. 17, № 5. – P. 14–32. Yaman I. Türkiye'de İngilizce öğrenmek: zorluklar ve fırsatlar // Rumelide Journal of Language and Literature Studies. – 2018. – P. 161–175. Dilekli Y. Ortaokul İngilizce hazırlık sınıfı programı pilot uygulamasının öğretmen görüşlerine göre değerlendirilmesi // International Journal of Society Researches. – 2018. – T. 8, № 15. – P. 1399–1425. Aksoy E., Bozdoğan D., Akbas, U., & Seferoglu, G. Old wine in a new bottle: Implementation of intensive language program in the 5th grade in Iran. // Eurasian Journal of Applied Linguistics, –2018. 4(2), –301–324. Berkant H. G., Ozaslan, D. & Dogan, E. Yabancı dil ağırlıklı eğitim uygulamasına ilişkin İngilizce öğretmenlerinin görüşleri. // Milli Eğitim Dergisi, –2019. 48(1), –B.553–570. Tavoosy Y. Evaluation of the Intensive English Language Teaching Programme for the Fifth Grade According to Teachers' Views // International Journal of Learning and Teaching. – 2021. – Vol. 13, Issue 3. – P. 106–124. Long M.H. Maturation constraints on language development // Studies in Second Language Acquisition. – 1990. – T. 12, № 3. – P. 251–285.

metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti, fakultetlararo chet tillari kafedra ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Chet tillarni o'qitishda dolzarb masalalar, innovatsion o'qitish usullari va ularni amaliyotga tadbiq etish" (2020-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini bilish darajasini rivojlantirishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida intensiv metodlardan foydalanishning nazariy asoslarini tadqiq qilish va bunda pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o'rganish asosida o'quv-bilish faoliyatini aniqlashtirish;

ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirilgan klasterli modelni ishlab chiqish hamda natijaviylik komponentlari tarkibining til ko'nikmalariga mosligini aniqlashtirish;

o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning intensiv metodlariga asoslanib, til o'qitishning vizual, kinestik, audial texnologiyalarini qo'llash tizimini takomillashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonida intensiv metodlarni qo'llash orqali til bilish darajasini takomillashtirishga asoslangan intensiv topshiriqlarni ishlab chiqish hamda reseptiv va produktiv nutqning rivojlanganlik mezonlarini aniqlashtirish va tajriba sinov ishlarini o'tkazish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni ishlatishning kuchaytirilishi ko'rsatilib, tajriba-sinovda Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Jizzax viloyatlarida joylashgan 10 ta umumta'lim maktablarining V-VII sinflarida tahsil oluvchi 531 nafar o'quvchi jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni bajarish vaqtida muammoga tegishli ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganib chiqish, tahlil qilish, diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodika), intervyu, suhbat, pedagogik eksperiment (tajriba), olingan natijalarni statistik va matematik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida intensiv metodlardan foydalanishning nazariy asoslari shaxs psixologik holati bilan bog'liq bo'lgan harakat, emotsional, so'zlarni o'qish va yod olish, tarjima qila olish kabi ma'lumotlarni qabul qilish va taassurotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan psixik jarayonlar bilan bog'liqligiga ko'ra aniqlashtirilgan;

ingliz tilini o'qitishda klasterli modelning natijaviy-baholash komponenti mazmunini intensiv faoliyati funksiyalarini tayyorlov, metodik, kognitiv, ijodiy bosqichlari bilan fanlararo diskursiv jihatdan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarni ingliz tiliga o'rgatishda o'quv materiallari mazmuni shaxsning tasavvur, xotira, irodaviy sifatlar hamda hayol kabi psixologik komponentlarini remenession va mantiqiy intensiv topshiriqlar orqali rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o'rganish jarayonida intensiv metodlarni qo'llash orqali til bilish darajasini intensiv topshiriq (mashq bajarish, dialog, monolog, yangi so'z va atamalarni yod olish, audio va video topshiriqlar) asosida baholash hamda reseptiv va produktiv nutqning rivojlanganlik mezonlari lingvistik o'quv materiallari bilan muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida psixologik (psixoterapevtik) ta'sir ko'rsatish omillariga ustuvorlik berish asosida ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish (so'zlarni o'qish va yod olish, tarjima qila olishga oid) faoliyat darajalari aniqlashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun mazkur intensiv metodlar asosida ishlab chiqilgan "Innovatsion yondoshuvli intensiv usullarda ingliz tilini o'qitish texnologiyasi" uslubiy qo'llanmasi nashr etilib, o'quv jarayoniga tatbiq qilingan;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tashkiliy-tuzulmaviy modeli ishlab chiqilgan va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish metodikasi samaradorligini ta'minlaydigan intensiv metodlar tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi dissertatsiya ishida qo'llangan yondashuv, intensiv usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy, metodik, rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan tahlillar ingliz tilini intensiv o'qitishga doir nazariy va amaliy tajribalar xorijiy va respublika adabiyotlaridan tajribalar o'rganilib, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullari vositasida asoslanganligi, tadqiqot ishi xulosalari, berilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida psixologik (psixoterapevtik) ta'sir ko'rsatish omillariga ustuvorlik berish asosida ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish (so'zlarni o'qish va yod olish, tarjima qila olishga oid) faoliyat darajalari aniqlashtirilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tashkiliy-tuzulmaviy model ishlab chiqilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun mazkur intensiv metodlar asosida ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma yaratilgan va maktab

o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish samaradorligiga yo'naltirilgan "Development" texnologiyasini ishlab chiqqanligi uchun (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining DGU 28582) hamda metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik muammoning tadqiqotda qo'yilgan vazifalar darajasida hal qilingani, shuningdek, o'qitish jarayonida uning ahamiyati va zarurati ochib berilgani hamda tadqiqotda ilgari surilgan farazlardan "Ingliz tili" fanini o'qitish bo'yicha bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida intensiv metodlardan foydalanishning nazariy asoslari shaxs psixologik holati bilan bog'liq bo'lgan harakat, emotsional, so'zlarni o'qish va yod olish, tarjima qila olish kabi ma'lumotlarni qabul qilish va taassurotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan psixik jarayonlar bilan bog'liqligiga ko'ra aniqlashtirilgan taklif va tavsiyalar asosida "Intensive English for physics students" nomli o'quv-qo'llanma (Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil 23-dekabrda 509-PO' sonli nashr guvohnomasi) ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga joriy etilgan. Natijada mazkur taklif va tavsiyalar "Ingliz tili" fani mazmunini modernizatsiyalash jarayonida takomillashtirilgan o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar mazmuniga singdirilgan;

ingliz tilini o'qitishda klasterli modelning natijaviy-baholash komponenti mazmunini intensiv faoliyati funksiyalarini tayyorlov, metodik, kognitiv, ijodiy bosqichlari bilan fanlararo diskursiv jihatdan integratsiyalash asosida oid tavsiyalardan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER - "Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" (2019-2022-yy.) mavzusidagi xalqaro loyihaning bajarilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2024-yil 27-fevraldagi 1/11-6-13-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur yondashuv va natijalar o'quvchilarning ingliz tilini o'rgatishga oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning sifat va samaradorligini ta'minlagan;

o'quvchilarni ingliz tiliga o'rgatishda o'quv materiallari mazmuni shaxsning tasavvur, xotira, irodaviy sifatlar hamda hayol kabi psixologik komponentlarini remenession va mantiqiy intensiv topshiriqlar orqali rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan O'zbekiston Milliytele-radio kompaniyasi O'zbekiston teleradio kanalining "Madaniy ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-martdagi 56-03-2674-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Ingliz tili" fanini o'qitish va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini

o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash tizimini takomillashtirish samaradorligining ortishiga erishilgan.

ingliz tilini o‘rganish jarayonida intensiv metodlarni qo‘llash orqali til bilish darajasini intensiv topshiriq (mashq bajarish, dialog, monolog, yangi so‘z va atamalarni yod olish, audio va video topshiriq)lar asosida baholash hamda reseptiv va produktiv nutqning rivojlanganlik mezonlari lingvistik o‘quv materiallari bilan muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarga intensiv metodlar asosida ingliz tilini o‘qitish” nomli elektron dasturini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2024-yil 27-fevraldagi 1/11-6-13-son ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan dasturiy tavsiyalar asosida o‘quvchilarga intensiv metodlar asosida ingliz tilini o‘qitishda reseptiv va produktiv nutqning rivojlanganlik darajasini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta uslubiy qo‘llanma, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 11 ta maqola, shundan 7 tasi respublika, 4 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda nashr qilingan. Dissertatsiya natijalari asosida ishlab chiqilgan 2 ta virtual elektron dasturga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nazariy va amaliy ahamiyati, e‘lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash tizimining ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash tizimining mavjud holati tahlil qilingan va ingliz tilini o‘qitish metodik tizimining nazariy asoslari yoritilgan.

Zamonaviy til ta’limi tizimida o‘quvchilarga tarbiya berish orqali ularni shaxs sifatida shakllantirish va egallangan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashga doir

malakalarini to'g'ri yo'naltirish yo'lida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Til nafaqat inson muloqot manbai balki hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi ham hisoblanadi.

Tilni ijtimoiy zarurat sifatida ta'kidlar ekanmiz til bozorida uni oson va samarali o'rganishlari uchun o'rganuvchilarga raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan kurslar tinimsiz ravishda o'z xizmatlarini taklif qilishayotgani, vaqtni oltinga teng deb bilgan va o'z ishi, o'qishi va biznesini rivojlantirishni o'ylagan o'rganuvchilar ko'p hollarda "Ikki hafta ichida ingliz tilini o'rganish", "Samarali ekspress-metod", "Ongosti darajasidagi ingliz tili", "Booknomy" va boshqa shu kabi qisqa muddatli kurslarini tanlashayotganini ta'kidlashimiz joiz. Ammo ushbu kurslar ijtimoiy ehtiyojni qondirish vositasi sanalgani bilan pedagogik jihatdan tajribadan o'tkazilmaganligi, ularda ta'limni individuallashtirish, ya'ni o'rganuvchiga psixologik ta'sir ko'rsatish omillari inobatga olinmaganligi uchun o'z samarasini ko'rsata olmadi. Ingliz tili o'qitish tarixiga nazar solar ekanmiz unda til o'rganishning zaruriy omili o'quv-bilish faoliyatini tizimli tashkil etishda ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu tizimning ketma-ketligini esa o'qituvchi o'quvchining psixologik holatini inobatga olgan holda ta'limda obyekt-obyektga munosabatni to'g'ri shakllantirishini talab qiladi. Shu jihatdan, Z.Avliyoqulova⁸ ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Intensiv metodlarning pedagogik zarurati jihatini yoritir ekan E.Moydinova⁹ chet tili ta'limining fundamental mohiyati o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish asnosi deb atasa, G.N.Pirmanova¹⁰ dars jarayonida maxsus didaktik o'yinlarni texnologik-faoliyatli bosqichlarda amalga oshirish o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini shakllantirishni ta'kidlagan. Natijada, til o'qitishning ijtimoiy va pedagogik zarurati ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

O'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib unda barcha metodlar individualizatsiya konsepsiyasi doirasida talqin qilingan. Psixologik jihatdan shaxs shakllanish jarayonining pedagogik ahamiyati tahlil qilinganda, rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilarning individual shakllanishida turlicha namoyon bo'ladi. O'quvchilarning tabiiy moyillik (temperament) va yashash sharoitlariga qarab bir-birlaridan farqlanish jihatlari ularning rivojlanish jarayonida individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitilishi kerakligi bilan tavsiflanadi. Til o'qitish jarayonida o'quvchi xotirasining o'ziga xosligi, yangiliklarga moyilligi va qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari, shuningdek har qanday faoliyatga moyilligi singari kognitiv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan individualizatsiya

⁸ Авлиякулова Н.Х. Замоновий ўқитиш технологиялари. Ўқув қўлланма.-Т: 2001.-68 б.

⁹Мойдинова Э. Мактабгача таълим муассасаларида инглиз тилини ўргатишнинг методик хусусиятлари/“Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал.Тошкент. №5–6/2017137-142 бетлар.

¹⁰ Пирманова Г.Н. Англия бадиий меросини ўрганиш талабаларнинг инглиз тилига қизиқишини ошириш воситаси сифатида/ Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори PhD Диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2019.

strategiyasini to'g'ri va malakali qurish mumkin emas. Psixologik jihatdan o'quvchilarning aqliy rivojlanishning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etishda, kerakli (zaruriy) texnikani tanlash, o'quvchilarning o'rganish tezligi individual xususiyatlariga ko'ra turli xil o'quv, uslubiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy boshqaruv faoliyatli metodlarni qo'llash pedagogning o'z maqsadiga erishishda yordam beruvchi dasturul amal bo'lishi lozim.

Tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida umumta'lim maktablari o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdagi muammolar sifatida o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga oid darsliklarda madaniyatlararo muloqot jarayonida uchraydigan nomutanosibliklar ham qiyinchilik tug'dirishi, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun nashr ettirilgan Workbooklarda mavzu mazmunini yorituvchi manbalar, tasvir va jadvallar oq-qora rangdaligi, umumta'lim maktablari o'quvchilariga o'qitiladigan ingliz tiliga oid mavzularning mazmunan uzluksizligi va uzviyligi ta'minlanmaganligini keltirishni lozim ko'rdik. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga o'qitiladigan ingliz tili fani mavzulari o'rtasida o'zaro takrorlanmasligi, mavzular ketma-ketligini soddadan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirish, rejada o'tiladigan mavzu o'tilgan mavzularning uzviy davomi bo'lishi o'quvchilarda fanga (til o'rganishga) nisbatan qiziqishini rivojlantirishga hamda fanni xalqaro standartlar talablari darajasida o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilini o'qitishda intensiv metodlardan foydalanish tizimini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida intensiv metodning shakl, mazmuni va mohiyati maktab sharoitida tahlil qilinib, tahlil natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars jarayonlari, baholash mezonlari va darsliklar tahlil qilinib unda asosan o'quvchilarning gapirish ko'nikmasini shakllantirishga doir mashqlarga ko'proq vaqt ajratilganini guvohi bo'ldik.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida intensiv metodni qo'llash bosqichlari mualliflik modelimizda o'z aksini topgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijaviy komponentli va intensiv metodlarni qo'llash tizimini takomillashtirishni bir butun tizim sifatida tahlil qilish maqsadida klasterli model ishlab chiqildi.

Mazkur model beshta blok (maqsadli blok, mazmunli blok, jarayonli blok, baholash bloki va natijaviy blok) larga ajratilib, maqsadli (DTS talabi va maqsad), mazmunli (pedagogik shart-sharoit, yondashuvlar va tamoyillar), jarayonli (mazmun, shakl, metod va vosita), baholash (pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari va baholash darajalari), natija (natija) komponentlarini o'z ichiga oladi.

Klasterli modelni amalga oshirishdagi eng muhim blok sanalgan jarayonli blokining mazmun komponenti (me'yoriy hujjatlar; uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha DTS, o'quv dasturi, ingliz tili fanini o'qitishga oid hujjatlar), ilmiy adabiyotlar (ilmiy adabiyotlar va manbalar) va qo'shimcha materiallar (didaktik manbalar, ko'rgazmali qurollar, audio, video, performance (tomosha, ijro), games (o'yinlar) va lug'atlar))larni, shakl komponenti (jamoaviy (intensiv metodlar asosida o'quvchilarni umumlashtiruvchi shakllardan foydalanish)), guruhli (intensiv metodlar

asosida o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib o‘qitish) va yakka (intensiv metodlar asosida individual tarzda mashg‘ulotlarni tashkil etish)larni, - metod komponenti (intensiv metodlar (upgrade, kaizen), innovatsion texnologiyalar (how and why, IRF(initiation-response feedback, speaking strukturasi)) texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash tizimini takomillashtirishning klasterli modelining baholash bloki pedagogik tajriba-sinov ishlarini asoslovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi bosqichlarda amalga oshirildi. Bu uchala bosqichda tizimlilik tamoyillari asosida o‘quvchilar bilimi, qiziqishlari, ta’lim muassasasining moddiy texnik bazasi va eng muhimi samarali intensiv metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilar bilimini aniqlash samaradorligi isbotlangan.

Natijada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llashning takomillashgan tizimini ishlab chiqishga erishilgan. (1-rasmga qarang)


Til ta’limida dars jarayonini mazmunli va samarali tashkil etishda intensiv metod asosida tashkil etilgan “How and Why”, “IRF” hamda “Speaking Structure” texnologiyalari borasida ma’lumotlar berilgan.

O‘quvchilarning chet tilini mukammal o‘rganishlariga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi intensiv metodlarni qo‘llashda pedagogik muhitni to‘g‘ri shakllantirish mezonlari tashkiliy pedagogik struktura ko‘rinishida o‘z aksini topgan (2-rasmga qarang).

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlarining mazmuni, o‘quvchilarda So‘z boyligi oshishi, Fikrlash qobiliyatning rivojlanishi, Suhbatga kirisha olish ko‘nikmalari shakllantirib Barer chegarasiga yetadi. Keyingi bosqichlarda esa Ingliz tilida ravon so‘zlay olish, yangi bilimlarni mustaqil egallay olish orqali ingliz tilida milliy va xalqaro baholash mezoni talablariga javob bera oladigan bilimdon o‘quvchilarni tayyorlashga erishiladi. Zamonaviy sharoitda ingliz tili fanini loyihalashtirishda yangicha Speaking strukturasi orqali innovatsion yondashuv, ya’ni, ta’lim jarayonini texnologik strukturasi ta’lim rezonansiga muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi.

O‘qituvchi “Speaking strukturasi” orqali faoliyatini tashkil etishda ta’lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Intensiv topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan “Speaking struktura”si o‘quvchilarning ingliz tilida reseptiv va produktiv nutqini tez va samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida “Speaking struktura”si – pedagogik faoliyat ko‘rinishi bo‘lib, u ta’lim jarayonining texnologik tuzilma hamda o‘qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig‘indisiga egaligi bilan tavsiflanadi (2-rasmga qarang).



1-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash tizimini takomillashtirishning klasterli modeli

Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.


Zamonaviy sharoitda innovatsion xarakterga ega vositalar ham qo'llanilmoqda. Ularning texnologik-didaktik imkoniyati o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirish bilan birga, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirishga yordam beradi.

“Speaking strukturasi” texnologiyasini tashkil etish oltita bosqichni o'z ichiga olib: birinchi bosqich “So'z boyligini oshirish” bosqich deb nomlanib, mazkur bosqichda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga “Lug'atlardan foydalanish” ning innovatsion usullarini o'rgatadilar. Natijada o'quvchilarning so'z boyligi oshishiga erishiladi;

“Zarur iboralar” deb nomlangan bosqichda fan o'qituvchilari tomonidan mavzuga oid yangi atamalarni o'quvchilarga tushuntirishning yangicha yo'llari qo'llaniladi. Natijada o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatning rivojlanishiga erishiladi;

“Confab” deb nomlangan uchinchi bosqichda fan o'qituvchilari tomonidan Confab mavzusini va o'quvchiga mos bo'lgan sherigini tanlash, suhbat mazmunini kuzatish hamda to'g'ri yo'naltirish natijasida o'quvchilarda o'zaro suhbatga kirisha olish ko'nikmalarining rivojlanishiga erishildi. Bu esa o'quvchilarda reseptiv va produktiv nutqini rivojlanishiga asos bo'ladi;

“Motivatsiya” deb nomlangan bosqichda fan o'qituvchilari tomonidan oquvchilarda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish maqsadida, egallagan bilim, ko'nikma va malakalari a'lo darajada ekanligi va uni yanada rivojlantirishga oid motivatsiyalar berilishi natijasida, o'quvchilarning passiv lug'ati, aktiv lug'atga aylanishi hamda Barer chegarasidan o'tishiga erishiladi;



2-rasm. “Speaking strukturasi” texnologiyasining tashqi ko‘rinishi.

“Mustaqil ishlash” deb nomlangan bosqichda fan o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga ingliz tilida mustaqil ishlash qoidalarini o'rgatishi va mustaqil ta'limni tashkil etish natijasida, o'quvchilarda yangi bilimlarni mustaqil egallay olish ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi. “Speaking strukturasi” texnologiyasida tasvirlangan barcha bosqichlar intensiv metodning yaxlit ko'rinishini ifodalaydi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarini “Ingliz tili” fanidan oʻqituvchi tanlovi asosida pedagogik shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda xorijiy tillarning oʻquv dasturi asosida “Speaking strukturasi” texnologiyasi ishlab chiqildi. “Speaking strukturasi” texnologiyasi oʻquvchilarning ingliz tilidan suhbatlashishga oid bilim, koʻnikma va malakalarini ongli ravishda oʻzlashtirish ishtiyoqini rivojlantirish, ichki va tashqi motivatsiyani sifatli bilim, mustaqil izlanuvchi sifatida taʼlim olishga yoʻnaltiriladi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uni oʻtkazish metodikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, oʻtkazilgan tajriba natijalari va ularning matematik-statistik tahlili bayon etilgan. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi 5-6-7-sinf oʻquvchilarini ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash tizimini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat boʻldi.

